

NAMANGAN VILOYATIDA SANOAT ISHLAB CHIQRARISH


1. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi – iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlar dasturlarining amalga oshirilishi natijasidir.

Sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, viloyat sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratdi.

1995 yilda sanoat ishlab chiqarishning hajmi 1994 yilga nisbatan 4,5 foizga kamayganiga qaramay, 2000 yildan boshlab (o'tgan yilga nisbatan) o'sish 126,1 foizga, 2005 yilda - 114,0 foizga, 2010 yilda - 121,2 foizga, va 2017 yilda - 107,3 foizga o'sganini ko'rsatmoqda.

1-rasm

Sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari dinamikasi



Shuni ta'kidlash lozimki, 2017 yilda viloyatning jami sanoat ishlab chiqarilishi hajmi asosan Namangan shahri 46,0 foizdan, Namangan, Uychi, Uchqo'rg'on, To'raqo'rg'on tumanlari 6 foizdan yuqori hamda qolgan tumanlarda ulushi 5 foizda kam bo'lgan.


2017 yilda hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishning aholi jon boshiga hajmi Namangan shahrida 3000,0 ming so'mdan, Namangan 2000,0 ming so'mdan, Uchqo'rg'on, Uychi, To'raqo'rg'on tumanlari 1000,0 ming so'mda yuqori hamda qolgan tumanlarda ulushi 1000,0 ming so'mgacha bo'lganligi kuzatildi.

Sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, jahon bozorida yuqori raqobatbardosh bo'lgan ishlab chiqarishlarni manzilli qo'llab-quvvatlanishi, ishlab chiqarishlar tarkibida qayta ishlash sanoatining ulushini oshishiga ko'maklashdi.

2017 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2016 yil bilan taqqoslaganda 4,8 foizga o'sgan.

2-rasm


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari dinamikasi



2017 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 42,7 foizi ulushi oziq-ovqat tovarlari hamda qolgan 57,3 foizini ulushi nooziq-ovqat tovarlari tashkil etgan.

3-rasm

Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish tarkibi




Hududlar kesimida, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sishi Namangan shahri, Kosonsoy, Namangan, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi tumanlarida o'tgan yilning shu davriga

nisbatan o`lish 100 foizdan yuqori bo`ldi. Qolgan Mingbuloq, Norin, Uchqo`rg`on, Chortoq, Chust va Yangiqo`rg`on tumanlari o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`lish 100 foizdan past bo`lganligi kuzatildi.

Shuni ta`kidlash lozimki, 2017 yilda viloyatning jami sanoat ishlab chiqarilishi hajmi asosan Namangan shahri 50,0 foizdan, Namangan 10,0 foizdan yuqori, Kosonsoy, Uychi, Uchqo`rg`on, To`raqo`rg`on, Chust tumanlari 4 foizdan 6,5 foizgacha hamda qolgan tumanlarda ulushi 4 foizda kam bo`lgan.


4-rasm

2017 yilda viloyatda jami iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi



2017 yilda hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishning aholi jon boshiga hajmi Namangan shahrida 2000,0 ming so`mdan, Namangan 1600,0 ming so`mdan, Uchqo`rg`on, Uychi, To`raqo`rg`on tumanlari 500,0 ming so`mda yuqori hamda qolgan tumanlarda ulushi 500,0 ming so`mgacha bo`lganligi kuzatildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



2. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'siri.

Мазкур тармоқда кичик бизнес субъектларининг юқори суръатларда ўсиши, қулай ишбилармонлик муҳитининг яратилиши, ягона солиқ тўлови ставкаларининг пасайтирилиши, ресурслардан ва ишлаб чиқариш инфратузилмаларидан фойдаланишга рухсат бериш шартларининг соддалаштирилиши ҳамда кичик бизнес субъектларини йирик компаниялар билан кооперация алоқаларининг кучайиши натижасида кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмидаги улуши 2000 йилдаги 15,6 фоиздан 2017 йилда 68,6 фоизга ёки 53,0 фоиз бирликка сезиларли даража ўсди .

2017 йилда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik субъектлари томонидан 2669,4 млрд.сўмлик саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилган (жами саноат маҳсулотларининг 68,4 фоизи) ёки 2016 йилга нисбатан 5,5 фоизга ўсган.

Сўнгги йилларда саноатнинг асосий тармоқларида, айниқса озиқ-овқат саноати, енгил саноат, қурилиш материаллари саноати, машинасозлик ва металлга ишлов бериш саноати, кимё ва нефт-кимё саноати ҳамда фармацевтика саноатида фаолият юритиб келаётган кичик бизнес субъектлари сонининг ошиб бораётганлиги ва улар томонидан саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг юқори ўсиш суръатлари қайд этилаётганлиги кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг саноатдаги улушини барқарор равишда ошиб боришини таъминлашда асосий омиллардан бири бўлиб хизмат қилмоқда.

Худудлар кесимида таҳлил қилинганда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг саноатдаги улуши 2000-2017 йилларда Наманган вилоятида 52,8 фоиз бирликка ўсган. Шунингдек, Янгиқўрғон туманида 87,1 фоиз, Чортоқ туманида 81,1 фоиз ва Косонсой туманида 75,2 фоиз бирликка кўпайган (1-жадвал).

**Худудлар бўйича кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг
саноатдаги улуши**

(фоизда)

	Йиллар				2000-2017 йилларда ўзгариш (+;-)
	2000 й. ¹⁾	2005 й.	2010 й.	2017 й.	
Юқори даражада					
Янгиқўрғон тумани	12,1	20,7	30,6	99,2	87,1
Чортоқ тумани	17,6	17,3	48,6	98,7	81,1
Косонсой тумани	9,5	16,8	48,8	84,7	75,2
Уйчи тумани	16,3	14,1	36,6	81,8	65,5
Наманган тумани	23,3	26,0	55,1	83,1	59,8
Чуст тумани	21,7	30,6	32,7	81,5	59,8
Норин тумани	5,7	7,3	18,3	69,3	63,6
Ўрта даражада					
Наманган шаҳри	29,1	26,0	47,5	68,6	39,5
Тўрақўрғон тумани	15,9	14,8	33,1	65,8	49,9
Паст даражада					
Мингбулоқ тумани	8,7	4,8	8,5	39,6	30,9
Поп тумани	4,8	13,8	8,8	38,1	33,3
Учқўрғон тумани	3,8	9,6	13,8	36,1	32,3

1-жадвал маълумотларига асосан 2017 йилда ҳудудлар бўйича кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг саноатдаги улуши юқори кўрсаткич Янгиқўрғон, Чортоқ, Косонсой, Уйчи, Наманган, Чуст ва Норин туманлари эканлигини кузатиш мумкин.

Мазкур кўрсаткич бўйича ўрта даражада бўлган Наманган шаҳри ва Тўрақўрғон туманлари 60-70 фоиз оралиғидаги кўрсаткичларни қайд этган.

Поп, Мингбулоқ ва Учқўрғон туманларида кичик бизнесни улуши 40 фоиздан паст даражани қайд этган.